

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**SINDAROV FAZLIDDIN KAXRAMONOVICH**

**KAPITAL BOZORIDA SAMARALI QIMMATLI QOG‘OZLAR  
PORTFELINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Economical Sciences**

**Sindarov Fazliddin Kaxramonovich**

Капитал bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish  
yo'llari..... 3

**Синдаров Фазлиддин Кахрамонович**

Пути формирования эффективного портфеля ценных бумаг на рынке  
капитала..... 25

**Sindarov Fazliddin Kakhramonovich**

Ways of forming an efficient securities portfolio in the capital market..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY  
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**SINDAROV FAZLIDDIN KAXRAMONOVICH**

**KAPITAL BOZORIDA SAMARALI QIMMATLI QOG‘OZLAR  
PORTFELINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5069 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Burxanov Aktam Usmanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xaydarov Nizamiddin Xamrayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Xalqaro Nordik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-y. Tel.: (0 371) 239-28-71, faks: (0371) 239-43-51, e-mail: [tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (0371) 239-28-71, faks: (0 371) 239-43-51, e-mail: [tsue@tsue.uz](mailto:tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ — raqamli reestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurligi.** Jahon iqtisodiyotida kapital bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish investitsion resurslarni turli aktivlar o'rtasida oqilona taqsimlash, riskni diversifikatsiya qilish va kutilayotgan daromadni barqarorlashtirish orqali moliyaviy tizimning umumiy samaradorligi va barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Portfel nazariyasiga tayanilgan holda, aksiya va obligatsiyalar, shuningdek, boshqa moliyaviy instrumentlarning o'zaro korrelyatsiyasini hisobga olgan holda shakllantirilgan optimal portfel investorlarga bir birlik riskka nisbatan yuqoriroq daromad olish imkonini yaratadi. Jahon kapital bozorining rivojlanishi global iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va investitsiyalarni jalb etishning asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Masalan, "AQSHda 1970-yillardan boshlab pensiya va investitsiya fondlarining faol ishtiroki natijasida kapital bozori jadal o'sib, dunyodagi eng yirik moliya markaziga aylandi. Buyuk Britaniya va Germaniyada esa kapital bozorining rivojlanishi korporativ obligatsiyalar bozorini kengaytirish va institutsional investorlar ulushini oshirish orqali amalga oshirildi"<sup>1</sup>. Shu sababli, kapital bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslarini, optimal portfel modellarini va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ilmiy tadqiq etish jahon moliyaviy bozorlari barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Jahon amaliyotida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda risk va daromad nisbatini optimallashtirish, portfel tarkibini moliyaviy derivativlar, birjaviy qimmatli qog'ozlar (ETF's), "yashil" obligatsiyalar, kripto-aktivlar va boshqa zamonaviy instrumentlar asosida diversifikatsiya qilish hamda portfel riskini baholash bo'yicha ko'plab ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, zamonaviy portfel nazariyasini takomillashtirish, VAR hamda CVAR kabi modellar yordamida investitsiya riskini baholash, shuningdek, Markovits, CAPM va Fama-French kabi ko'p faktorli modellari asosida optimal portfel shakllantirish hamda uning samaradorligini baholash ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda kapital bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida oqilona taqsimlash, tavakkalchilikni boshqarish va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda. Davlat tomonidan kapital bozorini chuqurlashtirish, yangi davlat va korporativ obligatsiyalar turlarini joriy etish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha axborot oshkoraligi standartlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish, shuningdek, investorlar himoyasini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib, portfel diversifikatsiyasi va riskni boshqarish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Mamlakatda kapital bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanib kelayotgan bo'lsada, bozor hajmining kichikligi, likvidli aktivlarning kamligi va bozor instrumentlari turlarining kamligi samarali portfel shakllantirishda

---

<sup>1</sup> U.S. Securities and Exchange Commission (SEC). (2022). Strategic Plan: Fiscal Years 2022–2026. U.S. Securities and Exchange Commission, Corradin, S., Fontana, A., Kubitz, C., & Maddaloni, A. (2025, November 20). The complex linkages between euro area insurers and sovereign bond markets (Research Bulletin No. 137). European Central Bank.

to'siq bo'lib kelmoqda. Shuningdek, hozirda aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini xususiylashtirish dasturlari asosida IPO va SPO jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, yangi investorlar fond bozoriga kirib kelmoqda. Bu esa qimmatli qog'ozlar portfelini to'g'ri shakllantirish, risklarni diversifikatsiya qilish va barqaror daromadni ta'minlashga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni talab etmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston sharoitida kapital bozorida samarali qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish tendensiyalari va iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish yuqori amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Kapital bozorida investitsiya portfelini shakllantirish hamda portfel shakllantirishda qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan daromad va risk o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq qilishga oid ilmiy-nazariy va amaliy masalalar H. Markowitz, W.F. Sharpe, John Lintner, F.Modigliani, L. Modigliani, Eugene F. Fama, Kenneth R. French, J. Stephen A. Ross, L. Treynor, M.C. Jensen, F. Sortino, Z Bodie, A Kane, A.J.Marcus, F.J.Jones, M. G. Ferri, F. J. Fabozzi, E.K. Keating, W. F.Shadwick, Eugene F. Brigham, Joel F. Houston<sup>2</sup> kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'ziga xos

---

<sup>2</sup> Harry Markowitz, "Portfolio Selection", The Journal of Finance, Vol. 7, No. 1 (Mar., 1952), pp. 77-91. William F. Sharpe, "Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium Under Conditions of Risk", The Journal of Finance, Vol. 19, No. 3 (Sep., 1964), pp. 425-442. John Lintner, "The Valuation of Risk Assets and the Selection of Risky Investment in Stock Portfolios and Capital Budgets", The Review of Economics and statistics, Vol 47, No. 1. (Feb., 1965), pp. 13-37. Eugene F. Fama and Kenneth R. French. "The Capital Asset Pricing Model: Theory and Evidence" Journal of Economic Perspectives—Volume 18, Number 3, Summer 2004. Pages 25–46. F. Modigliani va L. Modigliani, "Risk-adjusted performance", Journal of Portfolio Management, Winter 1997; 23. Stephen A.Ross. "The arbitrage theory of capital asset pricing". Journal of Economic Theory. 13 (3): 341–360. Treynor, J. L. (1965). How to rate management of investment funds. Harvard Business Review, 43(1), 63–75. Michael C. Jensen, "The Performance of Mutual Funds in The Period 1945–1964", The Journal of Finance, May 1968. Sortino, F. A., & Price, L. N. (1994). Performance measurement in a downside-risk framework. The Journal of Investing, 3(3), 59–64. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. J. Investments (11th edition). McGraw-Hill Education, New York, 2018. NY. Keating, E. K., & Shadwick, W. F. (2002). A universal performance measure (Working Paper). The Finance Development Centre. Eugene F. Brigham, Joel F. Houston, Fundamentals of Financial Management, 15th Edition, Cengage Learning, 2019. Page 866.

tarzda tadqiq etilgan bo‘lib, ular tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida investitsiya portfelidan kutilayotgan daromad va portfel riskini baholash muhimligi, shuningdek, ular bilan bo‘lgan muammolar o‘z aksini topgan.

MDH dan M.Chernova, A.Abramov, T.Teplova, E.Shutova; A. Kudina, A. Omir, O. Koshkina, P.Issakhova, A. Issakhova<sup>3</sup> va boshqa olimlar o‘z ilmiy ishlarida kapital bozorida portfel shakllantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan.

Kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchi olimlardan I.L.Butikov, M.Xamidulin, Sh. Shohazamiy, A.Burxanov, R.Karlibayeva, S.Elmirzayev, X.Qurbonov, S Abrorov, X. Xudoyqulov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>.

Ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy-uslubiy jihatlari o‘rganishga oid tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, samarali investitsiya portfelini shakllantirishning amaliy jihatdan yetarlicha o‘rganilmaganligi hamda alohida kompleks tadqiq etilmaganligi, kapital bozorida samarali qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-21101758-sonli “Alternativ moliya ekotizimini shakllantirish orqali dualistik tizim milliy modelini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kapital bozorida samarali qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;

---

<sup>3</sup> Chernova, M., Abramov, A., et al. Improving Pension Savings Investing: The Case of Russia. SSRN Working Paper, 2024. Teplova, T., Shutova, E. The Validity of the CAPM in the Russian Capital Market with Conditional Mean-Semivariance and Higher-order Moments Specifications. *Emerging Markets Finance & Trade*, Vol. 47, No. 3, 2011. Ainur Omir. The Influence of the Capital Market (Financial Instruments) on Economic Growth in Kazakhstan and CIS Countries. *Journal of Economic Research*, 2024. Koshkina, O.V., Issakhova, P.B., Issakhova, A.S. The Model of Financial Instruments Influence on the Capital Flow in Kazakhstan. *International Journal of Finance & Banking Studies*, 2015.

<sup>4</sup> I.L. Butikov. “Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане”, Avtoreferat. 2009. M.B. Xamidulin, I.B. Tursunov “Фондовый рынок или корпоративное управление: с чего начать приватизацию государственной собственности”, Корпоративное управление и новые бизнес-модели: поиск механизмов согласованного развития. 118-123. 2020. Khudoykulov Kh.Kh. Asset-pricing models: A case of Indian capital market. *Cogent Economics & Finance*. Volume 8, 2020 – Issue 1, pp-1-15 (№ 41. SCImago 0.393. Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini baholashda kapital aktivlar hisoblash (CAPM) usulidan foydalanish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali – T.: № 4, iyul-avgust, A.U.Burxanov. “Practice of investment funds development in developed countries”. *Theoretical & Applied Science*. 2018. 2020 yil. № 00048, 47-54 b.. S Abrorov. “Qimmatli qog‘ozlar bozorida sukukning roliga oid ilmiy-nazariy mulohazalar va uning o‘ziga xos jihatlari”. *Iqtisodiyot va ta’lim*. 2020. 126-130 b. S. Elmirezayev va b. “Moliya bozori” Darslik / S.Elmirezayev va boshqalar; – T.: — *Iqtisod-moliyal*, 2019. – 324 b. Sh. Shohazamiy. “Moliya bozori”, O‘quv qo‘llanma. T.: “Ilm-Ziyo”, 2012.

qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish modellarining uslubiy ahamiyatini yoritib berish;

qimmatli qog'ozlar portfeli samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining ahamiyatli jihatlarini ilmiy asoslash;

O'zbekiston kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlarning samarali portfelini shakllantirish holatini tadqiq qilish;

qimmatli qog'ozlar portfelidan kutilayotgan daromadga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish;

O'zbekiston kapital bozorida qimmatli qog'ozlar portfelining samaradorligini baholash;

O'zbekiston kapital bozorida samarali portfel shakllantirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish;

O'zbekiston kapital bozorida samarali portfel shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlariga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik jamiyatlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** fond birjasida investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada empirik, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, prognozlashtirish, induksiya va deduksiya, tanlama kuzatuv, korrelyatsion-regression tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "investitsiya portfelining samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ko'p mezonli, dinamik va riskka moslashtirilgan funksional sifatida talqin qilinib, likvidlik yetarliligi, kapitalni saqlab qolish qobiliyati, diversifikatsiya samarasi omillarini hisobga oluvchi investitsiya qarorlarini optimallashtirish va resurslarni qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

aksiyadorlik tijorat banklari aktivlaridan iborat qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda  $ROE \geq 11,95 \%$ ,  $ROA \geq 2,14 \%$ ,  $P/E \geq 5,88$  va  $P/B \geq 1,19$  me'yorlarini samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida qo'llash orqali investitsiya qarorlarini qabul qilish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalardan iborat portfelni shakllantirishda maksimal riskka moslashtirilgan samaradorlik ko'rsatkichi aniqlangan nuqtadagi portfelning standart chetlanishi bazaviy qiymat sifatida qabul qilinib, portfel riski  $0.9\sigma^* \leq \sigma_{portfel} \leq 1.1\sigma^*$  oraliqda shakllantirish orqali samaradorligi  $SR_{portfel} \geq 0.9SR^*$  dan yuqori bo'lgan investitsiya portfelini shakllantirish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalaridan iborat investitsiya portfelining daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2028-yilga qadar prognoz ssenariysi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

risksiz foiz stavkasini hisoblashda nominal stavka va inflyatsiya ta'sirini hisobga olib portfeldan kutilayotgan daromadni hamda uning samaradorligini real qiymatda baholash mumkinligi asoslab berilgan;

aksiyadorlik tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini fundamental tahlil qilish natijasida samaradorlik ko'rsatkichko'rsatkchlari yuqori bo'lgan aksiyadorlik tijorat banklarining aksiyalari tanlab olinib barqaror daromadga ega bo'lgan hamda past riskli portfel shakllantirish mumkinligi asoslab berilgan;

bank va nobank aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari asosida shakllantirilgan investitsiya portfellardan kutilayotgan daromad va risk nisbatlari hisoblanib, eng yuqori Sharp koeffitsiyentiga ega tangens portfel optimal variant sifatida asoslab berilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalaridan tashkil topgan investitsiya portfelidan kutilayotgan daromadga ta'sir qiluvchi omillarni baholashda panel ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlillar amalga oshirilgan va omillarning ta'sirchanlik darajasi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirishga oid xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarining o'rganilganligi, sohaga oid xorijiy fond bozorlarini ilg'or tajribalarining tadqiq etilganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, "Toshkent" Respublika fond birjasi, O'zbekistondagi 14 aksiyadorlik jamiyatlarining rasmiy ma'lumotlari tahlillariga tayanganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning ishonchliligi undagi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ya'ni O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlari nashr va hisobotlaridan olinganligi va ularni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarni kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirishga oid nazariy jihatlarini takomillashtirish, natijada O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirish bilan birga uning iqtisodiyotdagi ulushini sezilarli darajada oshirish, xususan, investitsiyalar hajmi hamda uning jozibadorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirish, qimmatli qog'ozlar portfeli bilan bog'liq moliyaviy risk darajasini kamaytirish hamda samarali portfel shakllantirishning zamonaviy usullardan foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy amaliy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "investitsiya portfelining samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ko'p mezonli, dinamik va riskka moslashtirilgan funksional sifatida talqin qilinib, likvidlik yetarliligi, kapitalni saqlab qolish qobiliyati, diversifikatsiya samarasi omillarini hisobga oluvchi investitsiya qarorlarini optimallashtirish va resurslarni qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan takomillashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Portfel menejmenti" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining

2024-yil 24-maydagi 150-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida talabalarda kapital bozorida samarali investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida mazkur tushunchalarga to‘g‘ri yondashish, ularning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda xususiyatlarini to‘liq hisobga olish imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik tijorat banklari aktivlaridan iborat qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishda  $ROE \geq 11,95 \%$ ,  $ROA \geq 2,14 \%$ ,  $P/E \geq 5,88$  va  $P/B \geq 1,19$  me‘yorlarini samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida qo‘llash orqali investitsiya qarorlarini qabul qilish taklifi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan amaliyotga joriy qilingan (“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning 2025-yil 20-oktabrdagi 09-3-21/1-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida bankning fond bozorida shakllantirayotgan investitsiya portfelini barqaror daromadlilik va yuqori rentabellikni ta‘minlab, kapitalni samarali joylashtirish va uzoq muddatli qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalardan iborat portfelni shakllantirishda maksimal riskka moslashtirilgan samaradorlik ko‘rsatkichi aniqlangan nuqtadagi portfelning standart chetlanishi bazaviy qiymat sifatida qabul qilinib, portfel riski  $0.9\sigma^* \leq \sigma_{portfel} \leq 1.1\sigma^*$  oraliqda shakllantirish orqali samaradorligi  $SR_{portfel} \geq 0.9SR^*$  dan yuqori bo‘lgan investitsiya portfelini shakllantirish taklifi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan aksiyalardan iborat portfel shakllantirish davomida yuqori samarali portfellar to‘plamini baholashda qo‘llanilgan (“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning 2025-yil 20-oktabrdagi 09-3-21/1-sonli ma‘lumotnoma). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida portfeldan kutilayotgan daromad va risk nisbatlari optimal darajada muvozanatlashib, barqaror daromadli va yuqori samarali investitsiya imkoniyatlarini baholash imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalaridan iborat investitsiya portfelining daromadiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ssenariysi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan amaliyotga joriy qilingan (“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning 2025-yil 20-oktabrdagi 09-3-21/1-sonli ma‘lumotnoma). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida investitsiya portfelining daromad salohiyati oshib, 2025-2028-yillar davomida barqaror va prognoz qilinadigan daromad oqimlari shakllanib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va foydalilik darajasi ta‘minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro, 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 2 ta xorijiy jurnalda maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 160 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan oʻtganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kapital bozorida investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qimmatli qogʻozlar portfelini shakllantirishning nazariy asoslari, qimmatli qogʻozlar portfelini shakllantirishining modellarini nazariy-uslubiy jihatlar hamda qimmatli qogʻozlar portfelini samaradorligini baholash koʻrsatkichlarini ahamiyatli jihatlari tadqiq qilingan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy natija va yangiliklar olingan.

Oʻzbekistonda kapital bozorini rivojlantirish **“Oʻzbekiston -2030”** strategiyasida aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga, erkin muomaladagi qimmatli qogʻozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, pay va venchur jamgʻarmalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish orqali portfel investitsiyalar hajmini 2 barobarga oshirish hamda 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini **“Xalq IPO”**ga chiqarish, aholini IPOda qatnashishini ragʻbatlantirish mexanizmlarini joriy qilish boʻyicha qoʻyilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Kapital bozori jadal suratlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya portfelini shakllantirish hamda individual aktivlar qiymatini baholashning koʻplab zamonaviy usul va modellaridan foydalanilayotganligi, investitsiya portfelidan kutilayotgan daromad, beta hamda standart chetlanish orqali baholanadigan portfel riski, shuningdek, portfel samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy jihatlari muallif tomonidan tadqiq qilingan.

Mazkur jihatlarni inobatga olgan holda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning investitsiya portfeli hamda investitsiya portfelining samaradorligi boʻyicha olib borilgan ilgʻor ilmiy izlanishlarni oʻrganish asosida **“investitsiya portfeli”** hamda **“investitsiya portfelining samaradorligi”** atamalariga mualliflik taʼriflari ishlab chiqildi.

Bizning fikrimizcha, Investitsiya portfeli — bu investorning moliyaviy maqsadlariga erishish, daromadlilikni optimallashtirish va riskni boshqarish uchun oʻzaro bogʻliq boʻlgan qimmatli qogʻozlar va boshqa moliyaviy aktivlarning maqsadli ulushlarda shakllantirilgan diversifikatsiyalangan kombinatsiyasidir. Portfel har bir aktivning kutilayotgan qaytimi, dispersiyasi, kovariatsiyasi va bozor bilan korrelyatsiyasiga asoslangan holda matematik modellashtiriladi hamda uning umumiy vaznlar yigʻindisi bir birlikka teng boʻladi. Bu yondashuv investorning riskka boʻlgan moyilligi va investitsion maqsadlarini inobatga olgan holda optimal risk–daromad nisbatini taʼminlashga qaratilgan.

Investitsiya portfeli bo'yicha nazariy yondashuvlar<sup>5</sup>

Mualliflar	Ta'riflar
<b>H.Markowitz</b>	Investitsiya portfeli — bu investitsiyalarni alohida aktivlar emas, balki ularning kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqish orqali, ma'lum risk darajasida maksimal daromad yoki ma'lum kutilayotgan daromad darajasida minimal riskni ta'minlashga qaratilgan aktivlar to'plamidir.
<b>W. F.Sharpe</b>	Investitsiya portfeli — bu investor tomonidan risk va kutilayotgan daromad o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash maqsadida shakllantirilgan aktivlar to'plamidir
<b>Z.Bodie, A.Kane, &amp;A.J.Marcus</b>	Investitsiya portfeli – bu investor tomonidan o'z moliyaviy maqsadlariga erishish uchun tuzilgan, turli moliyaviy aktivlardan (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar, naqd pul ekvivalentlari) iborat bo'lgan aktivlar yig'indisidir
<b>Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins</b>	Investitsiya portfeli — bu investor yoki moliyaviy institut tomonidan aktivlarni turlicha shakllarda (aksiyalar, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalar) jamlash orqali riskni kamaytirish va daromadni optimallashtirishga qaratilgan sarmoyalar yig'indisidir.
<b>Eugene Fama, Kenneth R. French</b>	Investitsiya portfeli — bu aktivlardan shakllantirilgan shunday kombinatsiyasiki, u kutilayotgan daromadning asosiy omillari sifatida bozor riski, kompaniya hajmi va nisbiy qiymat faktorlariga bog'liq holda baholanadigan to'plamdir.
<b>E. J.Elton, M.J.Gruber, S.J.Brown &amp; W. N.Goetzmann</b>	Investitsiya portfeli — bu turli moliyaviy aktivlardan iborat bo'lgan aktivlar kombinatsiyasi bo'lib, u investorlarga berilgan risk darajasida maksimal daromad olish imkonini beradigan tarzda shakllantirilgan to'plam.
<b>F.K.Reilly &amp; K.C.Brown,</b>	Investitsiya portfeli — bu investor tomonidan moliyaviy maqsadlariga erishish uchun ehtiyotkorlik bilan tanlangan va diversifikatsiyalangan aktivlar to'plamidir.
<b>CFA Institute</b>	Investitsion portfel — bu bir butun boshqariladigan va investorga kerakli daromad keltirishi kutiladigan, ma'lum darajadagi risk darajasiga ega bo'lgan aktivlar to'plamidir.
<b>Nasdaq Financial Glossary (2024)</b>	Investitsiya portfeli — bu investor (jismoniy yoki yuridik shaxs) tomonidan ma'lum maqsadlarda saqlanadigan turli xil moliyaviy aktivlar yig'indisidir.
<b>A.U.Burxanov, X.X.Xudoyqulov</b>	Investitsiya portfeli — ma'lum bir maqsadli investitsiya siyosat asosida shakllantirilgan moliyaviy instrumentlar to'plami

Investitsiya portfelining samaradorligi – bu investitsiya portfelining berilgan risk darajasida maksimal kutilayotgan daromadni yoki portfeldan kutilayotgan daromad darajasida minimal riskni ta'minlash qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu investorning riskga bo'lgan munosabati, investitsion maqsadi, bozor mavjud sharoitlari va aktivlar o'rtasidagi kovariatsiyaga asoslangan holda optimallashtirilgan aktivlar kombinatsiyasidir. Ushbu portfel samarali bozor egri chizig'i ustida joylashgan bo'lib, kutilayotgan daromad va dispersiya orqali baholanadi.

<sup>5</sup> Ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

Kapital bozorida investitsiya portfelini shakllantirish modellari<sup>6</sup>

Investitsiya portfelini shakllantirish modellari	Modelning tuzilishi
O'rtacha dispersiyani optimallashtirish modeli (H.Markowitz)	$E(R_p) = \sum_{i=1}^n w_i * R_i$ $\sigma_p^2 = \sum_i w_i^2 * \sigma_i^2 + \sum_{i=1}^n \sum_{j \neq i}^n w_i * w_j * \rho_{ij}$ $\sigma_p = \sqrt{\sigma_p^2}$
Kapital aktivlarni baholash modeli (CAPM), W. F.Sharpe	$E(R) = R_f + \beta * (M_r - R_f)$
Fama-French uch omilli modeli (Eugene Fama, Kenneth R. French)	$R - R_f = \alpha + \beta_1 * (R_m - R_f) + \beta_2 * SMB + \beta_3 * HML + \varepsilon$
Carhart to'rt omilli modeli (M. Carhart)	$R - R_f = \alpha + \beta_1 * (R_m - R_f) + \beta_2 * SMB + \beta_3 * HML + \beta_4 * WML + \varepsilon$
Fama-French besh omilli modeli (Eugene Fama, Kenneth R. French)	$R - R_f = \alpha + \beta_1 * (R_m - R_f) + \beta_2 * SMB + \beta_3 * HML + \beta_4 * WML + \beta_5 * CMA + \varepsilon$
Arbitraj baholash modeli (Stiven Ross)	$E(R_i) = R_f + \beta_1 F_1 + \beta_2 F_2 + \dots + \beta_n F_n + \varepsilon$

Bugungi kunda jahonning yetakchi olimlari tomonidan investitsiya portfelini shakllantirish bo'yicha ko'plab modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ilmiy ishimizda ushbu modellardan muhim hisoblangan va portfel shakllantirishdan kutilayotgan qaytimni baholash uchun ko'p murajaat qilinayotgan modellar keltirilgan (2-jadval).

Investitsiya portfelining samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar<sup>7</sup>

Portfelning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari	Formulasi
Sharpe koeffitsienti (William F. Sharpe)	$= \frac{(R_p - R_f)}{\sigma_p}$
Treynor koeffitsienti (J. L.Treynor)	$= \frac{(R_p - R_f)}{\beta_p}$
Jensen alfasi (M.C.Jensen)	$= R_p - [R_f + \beta * (R_m - R_f)]$
M <sup>2</sup> (Modilyani–Modilyani) ko'rsatkichi (F. Modigliani va L. Modigliani)	$M^2 = \frac{(R_p - R_f)}{\sigma_p} * \sigma_m - (R_m - R_f)$
Sortino koeffitsienti (Frank Sortino)	$= \frac{(R_p - R_f)}{\sigma_d}$

Kapital bozorda investitsiya portfelini shakllantirishdagi eng asosiy mezon sifatida investitsiya portfelining samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Investor uchun asosiy maqsad ham yuqori daromad keltiruvchi optimal portfel shakllantirish ekanligini inobatga olgan holda uning samaradorligini baholash muhim ahamiyat

<sup>6</sup> Ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.


<sup>7</sup> Ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

kasb etadi. Yetakchi olimlar tomonidan portfelning samaradorligini baholovchi bir qator ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular qatoriga Sharpe, Treynor, Jensen alfa, Modilyani–Modilyani ( $M^2$ ) hamda Sortino koeffitsientlari kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiya portfelining risk va daromadlilik o‘rtasidagi muvozanatini aniqlash, portfelni samaradorlik jihatidan baholash va turli portfellarni o‘zaro taqqoslashda keng qo‘llaniladi (3-jadval).

Portfel nazariyasining ilmiy evolyutsiyasi hamda zamonaviy baholash modellarining tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, portfelni shakllantirishda investitsiya qarorlari alohida aktivlarga emas, balki risk va kutilayotgan daromadning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan diversifikatsiyalangan portfel shakllantirish eng maqbul va ilmiy jihatdan asoslangan ekanini ko‘rsatmoqda.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston kapital bozorida portfel shakllantirishning amaldagi holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda kapital bozoridagi qimmatli qog‘ozlarning fundamental tahlil orqali samarali portfelni shakllantirish holati, qimmatli qog‘ozlar portfelidan kutilayotgan daromadga ta’sir qiluvchi omillarni ekonometrik model orqali baholash hamda O‘zbekiston kapital bozorida samarali qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirish va uning samaradorligini baholash tahlil qilingan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida ijobiy natijalar olingan.

Tadqiqotimiz obyektidan kelib chiqqan holda “Toshkent” Respublika fond birjasida qimmatli qog‘ozlardan iborat portfel shakllantirishda aksiyadorlik jamiyatlarining 2019-2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida rentabellik va multiplikatorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish orqali fundamental tahlil o‘tkazildi.




**1-rasm. Nobank AJlarining o‘rtacha rentabellik ko‘rsatkichlari<sup>8</sup>**

2019–2024-yillar mobaynida AJning ROA, ROE ko‘rsatkichlari hamda sof foyda marjalarining o‘zgarish dinamikasidan ko‘rinib turibdiki, ROE ko‘rsatkichi 2022-yilda maksimal darajaga yetib 23,14%ni tashkil qilgan, biroq keyingi yillarda pasayib, 2023-yilda 17,35% ga tushgan. ROA esa 2020-yilda 8,62% bilan eng yuqori natijani qayd etgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda izchil kamaygan va 2023-yilda 6,62% ni tashkil qilgan. Har ikkala ko‘rsatkich 2024-yilda tahlil qilinayotgan davrdagi tarixiy minimum ko‘rsatkichini qayd etgan bo‘lib, mos ravishda bu ko‘rsatkich 7 % va 1,9 % ni tashkil etgan. (1-rasm)

<sup>8</sup> Tadqiqot davomida <https://new.openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

ATB larining ROE ko‘rsatkichi 2019-yildagi 14,85 foizdan 2024-yilda sezilarli darajada pasayib 10,16% foizga tushgan. Buni 2 ta asosiy asosiy sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan 2024-yilda Aloqabank 16%, Hamkorbank 37,3%, Agrobank va Turonbanklar 1 % miqdorda xususiy kapitali miqdorini oshirgan bo‘lsa, bu davrdagi sof foyda Agrobankda 90,8%, Aloqabankda 68,7 %, Turonbankda 60 % sof foyda kamaygan hamda Ipotekabank 2024-yilgi moliya yilini 240 mlrd. so‘m zarar bilan yakunlaganligi ROE ko‘rsatkichining pasayishiga sabab bo‘lgan.



**2-rasm. ATBlarining o‘rtacha rentabellik ko‘rsatkichlari<sup>9</sup>**

ROA ko‘rsatkichida nisbatan barqarorlik kuzatilgan bo‘lib, 2019-yilda 2,32 foizdan 2023-yilda 2,62% foizni qayd etgan bo‘lsa, 2024-yilda 1,61% gacha pasaygan. Bu holat bank aktivlari hajmi pasayishi bilan ROE kam pasayganligini ko‘rsatmoqda. (2-rasm)

Portfel shakllantirishda AJlarining multiplikatorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish fundamental tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi. ATB hamda nobank AJlarining multiplikatorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish natijasida ma‘lum bo‘lishicha, nobank AJning o‘rtacha P/B, P/E hamda P/S ko‘rsatkichlari ATBlarining bunday ko‘rsatkichlarining o‘rtachasidan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda (4-jadval).

**4-jadval**

**Aksiyadorlik jamiyatlarining o‘rtacha multiplikator ko‘rsatkichlari<sup>10</sup>**

Yil	Nobank AJ			ATB		
	P/B	P/S	P/E	P/B	P/S	P/E
2019	10.07	2.13	12.74	1.66	1.65	9.13
2020	5.07	2.22	15.81	1.24	1.17	5.66
2021	8.16	1.57	16.04	1.08	0.88	5.54
2022	4.32	1.79	20.27	1.17	0.75	5.25
2023	3.51	1.33	22.71	0.98	1.08	4.07
2024	1.01	0.94	12.78	1.02	0.78	5.66

Kapital bozorida samarali portfel shakllantirishda AJning moliyaviy hisobotlari asosida fundamental tadqiqot o‘tkazilib, yuqori daromad keltiruvchi qimmatli qog‘ozlarni tanlashda sohadagi o‘rtacha rentabellik va multiplikatorlik ko‘rsatkichlari topilib, o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan AJlarining

<sup>9</sup> Tadqiqot davomida <https://new.openinfo.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>10</sup> Tadqiqot davomida <https://new.openinfo.uz> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

qimmatli qog'ozlari investitsiya kiritish yuqori kutilayotgan daromadni kafolatlovchi omillardan biri hisoblanadi.

## 5-jadval

### AJlarining o'rtacha rentabellik va multiplikatorlik ko'rsatkichlari tahlili<sup>11</sup>

AJ	ROE	ROA	Sof foyda marjasi	P/E	P/B
Nobank AJ	17.07%	6.19%	16.7%	16.72	5.36
ATB	11.95%	2.14%	13.74%	5.88	1.19

Ya'ni, sohadagi kompaniyalarning o'rtacha rentabellik va multiplikatorlik ko'rsatkichlari investorlar uchun qimmatli qog'ozlarni tanlashda benchmark vazifasini bajaradi (5-jadval).

Tadqiqotimizda qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytimga ta'sir qiluvchi omillarni 14 ta AJning 2019-2024-yillardagi samaradorlik ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil o'tkazdik.

Ekonometrik tahlilimiz uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblangan ROE, ROA, sof foyda marjasi, D/E, EPS, P/E, P/S hamda P/B ko'rsatkichlarni mustaqil o'zgaruvchi sifatida aksiyalardan qaytimni erksiz o'zgaruvchi sifatida tanlab oldik. Biz tahlilimizdagi tanlab olgan ko'rsatkichlarimizning taqsimotini normalashtirish uchun z-ko'rsatkich (z-score)dan foydalandik. Tahlilimizdagi kuzatuvlar soni 84 tani tashkil etadi. Ekonometrik tahlilni 14 ta AJning ma'lumotlariga asoslanganligimiz uchun panel tahlil asosida OLS modeli, O'zgarimas effektlar modeli hamda Tasodifiy effektlar modeli orqali amalga oshirdik.

## 6-jadval

### Regressiya modellarining natijalari<sup>12</sup>

Erksiz o'zgaruvchi (z <sub>y</sub> )	1	2	3
	OLS modeli	O'zgarimas effektlar modeli	Tasodifiy effektlar modeli
z <sub>roe</sub>	0.3017 (0.075)*	0.9628 (0.007)***	0.5839 (0.032)**
z <sub>ln(de)</sub>	-0.0766 (0.556)	-0.0908 (0.476)	-0.0814 (0.504)
z <sub>ln(eps)</sub>	0.2168 (0.048)**	0.2167 (0.089)*	0.2239 (0.048)**
z <sub>ln(pe)</sub>	0.5696 (0.000)***	0.6537 (0.000)***	0.6046 (0.000)***
z <sub>ln(pb)</sub>	0.1208 (0.042)**	0.0933 (0.031)**	0.1189 (0.039)**
_cons	0.0352 (0.046)**	0.1321 (0.043)**	0.1054 (0.034)**
R kvadrat	0.623	0.594	0.634
Prob > F	0.0002	0.0351	0.0000

\*\*\* 1% da statistik muhimligini, \*\*5% da statistik muhimligini, \*10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, portfeldan kutilayotgan qaytimga eng kuchli ta'sir qiluvchi omillar P/E ko'rsatkichi ( $z_{ln(pe)}$ ) va P/B ko'rsatkichi ( $z_{ln(pb)}$ ) hisoblanadi. Panel tahlil asosida O'zgarimas effektlar (FE) modeli hamda Tasodifiy

<sup>11</sup> Tadqiqot davomida <https://new.openinfo.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

<sup>12</sup> Ushbu jadval muallif tomonidan Stata – 17 dasturi yordamida tayyorlandi.

effektlar (RE) modeli shakllantirilgandan so'ng, ularning qaysi biri tanlanishi lozimligini aniqlash maqsadida Hausman testi o'tkazildi. Hausman testi panel tahlilda korxonaga xos yashirin omillar mustaqil o'zgaruvchilar bilan bog'liq yoki bog'liq emasligini tekshiradi va FE yoki RE modelidan qaysi biri mosligini tanlash uchun qo'llanadi.

Hausman testi natijalariga ko'ra, O'zgarimas effektlar modeli va Tasodifiy effektlar modellarning koeffitsientlari orasidagi farq tizimli emas  $H_0$  gipotezasi  $p=0.6268$  qiymati bilan rad etilmaydi. Chi-kvadrat statistikasi  $\chi^2(5) = 3,48$  bo'lib, bu model parametrlarining ikkala yondashuv – O'zgarimas va Tasodifiy effektlar modeli o'rtasidagi farq tasodifiy ekanini ko'rsatadi. Mustaqil o'zgaruvchilar bilan korxonaga xos omil orasida tizimli bog'liqlik aniqlanmagan va tasodifiy effektlar modeli koeffitsientlari samarali baholashni ta'minlaydi. Shu sababli qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan qaytimni tushuntirishda Tasodifiy effektlar modeli tanlanishi maqsadga muvofiq. Tasodifiy effektlar modeli dispersiya bo'yicha tasodifiy omil va korxonaga xos omil komponentlarni alohida modellashtirib, ma'lumotlarning kompleks tuzilishini moslashuvchan tarzda aks ettiradi (7-jadval).

**7-jadval**

**J.Hausman testi natijasi<sup>13</sup>**

O'zgaruvchilar	(A)	(B)	(A-B)	Standart xatolik
	O'zgarimas effektlar model	Tasodifiy effektlar model	O'zgaruvchilarni farqi	
<b>z_roe</b>	0.962793	0.5839365	0.3788568	0.2090445
<b>z_ln(de)</b>	-0.090790	-0.0813820	-0.0094098	0.0335392
<b>z_ln(eps)</b>	0.216722	0.2239099	-0.0071881	0.0408345
<b>z_ln(pe)</b>	0.653674	0.6046125	0.0490612	0.0393597
<b>z_ln(pb)</b>	0.093322	0.1188665	-0.0255443	0.0349035

Ushbu regressiya natijalari modelda aksiyalarning qaytimini belgilovchi asosiy omillar sifatida  $z\_roe$ ,  $z\_ln(eps)$ ,  $z\_ln(pe)$  hamda  $z\_ln(pb)$  kiritilgan. Tahlil natijalariga ko'ra,  $z\_ln(pe)$ ,  $z\_ln(pb)$  va  $z\_roe$  o'zgaruvchilari aksiyalar narxiga ijobiy va statistik jihatdan muhim ta'sir ko'rsatmoqda ( $p<0.05$ ). Bu esa rentabellik va multiplikator ko'rsatkichlarining o'sishi bilan aksiyalar qiymati ham ortishini bildiradi.

**8-jadval**

**Qimmatli qog'ozlardan kutilayotgan daromadning o'zgarishi bo'yicha 2025-2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari.<sup>14</sup>**

Yillar	$\bar{y}$	$Z_{Y_{it}}$	$\sigma_y$	$\hat{y}_{it}$
<b>2025</b>	22.10%	0.23	14.20%	25.37%
<b>2026</b>	23.37%	0.25	14.26%	26.94%
<b>2027</b>	23.93%	0.28	14.31%	27.94%
<b>2028</b>	24.25%	0.27	14.35%	28.12%

Shuningdek,  $z\_ln(de)$  o'zgaruvchisi manfiy, ammo statistik ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatmoqda. Modelning  $R^2$  qiymatlari (0.594–0.634) modelning izohlovchi kuchini ifodalaydi. Rentabellik va multiplikator ko'rsatkichlari o'sishi

<sup>13</sup> Ushbu jadval muallif tomonidan Stata – 17 dasturi yordamida tayyorlandi.

<sup>14</sup> Ushbu jadval muallif tomonidan Stata – 17 dasturi yordamida tayyorlandi.

aksiyalar narxini ijobiy yoʻnalishda shakllantiradi, yaʼni tahlilimizdagi  $H_0$  gipoteza rad etilib,  $H_1$  alternativ gipoteza qabul qilinadi.

P-qiyamatga koʻra ahamiyatli mustaqil oʻzgaruvchilarimiz asosida model tuzadigan boʻlsak, u quyidagicha koʻrinishga ega boʻladi.

$$Z_{Y_{it}} = \alpha_i + \beta_1 Z_{roe_{it}} + \beta_5 Z_{\ln(eps_{it})} + \beta_6 Z_{\ln(pe_{it})} + \beta_8 Z_{\ln(pb_{it})} + \varepsilon_{it}$$

Yoki Tasodifiy effektlar modeli natijadan kelib chiqqan holda quyidagicha ifodalash mumkin.


$$Z_{Y_{it}} = 0.1054 + 0.5839 * \beta_1 + 0.2239 * \beta_5 + 0.6046 * \beta_6 + 0.1189 * \beta_8 + \varepsilon_{it}$$

Modeldan kelib chiqib qimmatli qogʻozlardan kutilayotgan daromadni quyidagi formula orqali topishimiz mumkin.

$$\hat{y}_{it} = \bar{y} + Z_{Y_{it}} * \sigma_y$$

Tadqiqot natijalari 2025–2028-yillarda qimmatli qogʻozlardan kutilayotgan daromadning prognoz qiymatlari z-skoring natijalari va dispersiyasi asosida hisoblandi. Unga koʻra, tahlil qilinayotgan 14 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalaridan kutilayotgan qaytim 2025-yilda 25,37%, 2026-yilda 26,94 % va 2027-yilda 27,94 %, 2028-yilda 28,12 % boʻlishi kutilayotganligi prognoz qilindi (8-jadval).


Tadqiqotimiz davomida Oʻrtacha dispersiyani optimallashtirish modeli asosida 6 ta (“Oʻzbektelekom” AJ, “Oʻzbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ, “Chilonzor buyum savdo kompleksi” AJ, Hamkorbank AITB, Ipoteka-bank ATIB va “Ipak Yoʻli” AITB) AJ aksiyalaridan shuningdek, 3 ta nobank AJ hamda 3 ta ATB aksiyalaridan iborat jami 3 ta portfel shakllantirildi. Portfel shakllantirish jarayonidan har bir aktivning turli xil kombinatsiyalari shakllantirilib, shakllantirilgan portfellar Samarali bozor egri chizigʻi boʻylab joylashtirildi. Shuningdek, minimal daromad keltiruvchi portfeldagi aktivlarning nisbatlari aniqlandi.



3-rasm. Samarali portfellar chegarasi va kapital bozori chizigʻi. Tangens portfel<sup>15</sup>

<sup>15</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Uchala portfel bo'yicha samarali portfellar shakllantirilib, bu portfellardagi aktivlarning kombinatsiyalari aniqlandi hamda kapital bozori chizig'i chizildi. Bu chiziq bilan samarali bozor egri chizig'i uringan nuqta samarali portfel shakllangan nuqta hisoblanadi. Natijalar, 6 ta aktivdan iborat aktivlari teng taqsimlangan portfeldan kutilayotgan daromad 19,98%, portfelning riski 3,72% va Sharpe koeffitsienti esa 3,00 ga teng. Ammo, bu portfel samarali chegarada joylashmaganligi sababli bu portfel samarali emas. Samarali chegarada joylashgan va kutilayotgan daromadi 19,98 % ga teng bo'lgan portfelning riski 2,85% ga teng bo'lib, uning samaradorligi 3,92 ga teng. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, samarali chegarada joylashgan portfellar to'plami o'zi bilan bir xil kutilayotgan daromadga ega bo'lgan boshqa portfellarga qaraganda riski past va samaradorligi yuqori bo'ladi. Bu kombinatsiyadagi eng samarali portfeldan kutilayotgan daromad 26,63% ni tashkil qilmoqda (3-rasm).



**4-rasm. Portfelning standart chetlanishi va Sharpe koeffitsienti kombinatsiyasi<sup>16</sup>**

